

FITRATNING “ABULFAYZXON” DRAMASINI O’QITISHDA
YANGI PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Haqulova Gulnora Shukurovna

IV Buxoro akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu ,aqolada taniqli o‘zbek shoiri, yozuvchisi va publitsisti Abdurauf Fitratning “Abulfayzxon” dramasi orqali yoshlar tarbiyasiga qo‘shghanhissalari ko‘rib chiqiladi. Ijodkorning adabiy asarlarini o‘rganish orqali axloqiy qadriyatlar, madaniy ong va intellektual qarashlar rivojlanadi. Zamonaviy ta`limda Fitrat asarlarining dolzarbliji ta`kidlanadi va ta`limni rivojlantirish uchun usullarini zamonaviy o‘quv dasturlariga qo‘shish taklif qiladi.

Kalit so‘zlar. Fitrat, o‘zbek adabiyoti, drama, Rol o‘ynash (Role-play), klaster, debat, Raqamli texnologiyalar

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Fitrat, o‘z ijodi orqali milliy ong, tarixiy xotira va ijtimoiy uyg‘onish g‘oyalarini keng yoritgan. Uning “Abulfayzxon” dramasi o‘zbek dramaturgiyasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Mazkur asar orqali Fitrat nafaqat tarixiy shaxs obrazini yaratgan, balki jamiyatdagi siyosiy, ijtimoiy muammolarni ham yoritishga harakat qilgan.

Drama orqali Fitrat o‘tmishni aks ettirgan holda, bugungi jamiyat uchun muhim saboqlar beradi. Bugungi ta’lim jarayonida bu kabi asarlarni o‘rganishda zamonaviy yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalar asosida dars tashkil etish zarurati tobora ortib bormoqda.

Fitrat ijodi jadid adabiyoti uchun yangi bosqich bo‘ldi. U o‘z asarlari orqali turkistonliklarga ijtimoiyadolat, xalqparvarlik, islohot va tafakkur madaniyatini singdirishga harakat qilgan. 1937–1938-yillardagi qataq‘on davrida Fitrat “xalq dushmani” sifatida ayblanib, otib tashlangan.

“Abulfayzxon” dramasi haqida Fitratning “Abulfayzxon” dramasi 1918-yilda yozilgan bo‘lib, asar yozilgan davr Turkistonda mustamlakachilik siyosati kuchaygan, jadidchilik harakati esa avj olgan murakkab tarixiy bosqichga to‘g‘ri keladi. Bu davrda millatning ma’naviy uyg‘onishi, mustaqillik va islohotlar uchun kurash kuchaygan edi. Fitrat o‘z dramasi orqali bu jarayonlarga badiiy jihatdan munosabat bildiradi. U dramada Buxoro amirligi misolida o‘zbek jamiyatidagi islohotga qarshilik, johillik, din va davlat boshqaruvidagi tanglikni tasvirlaydi.

Asarda Abulfayzxon – islohotchi, lekin kuchsiz hukmdor sifatida aks ettiriladi. Uning atrofidagi ilmga yot, xoin va manfaatparast amaldorlar orqali jamiyatdagi tanazzul ko‘rsatiladi. Drama orqali Fitrat xalq bilan ajralgan, islohotni yolg‘iz o‘zi olib borishga uringan hukmdorning fojiasini ko‘rsatadi.

Tarbiyaviy jihatdan “Abulfayzxon” asari juda boy. Unda yoshlar uchun saboq bo‘ladigan bir necha muhim g‘oyalari mavjud: rahbar shaxsning mas’uliyati, ilm-fanga asoslangan boshqaruv zarurati, ma’rifatparvarlik ruhi, islohotchi pozitsiyasining zarurligi va xalq bilan yaqinlik tamoyili. Shuningdek, drama yoshlarniadolat, halollik, ma’rifat, vatanparvarlik, xalq manfaatiga xizmat qilish kabi fazilatlarga undaydi. Asarda hukmdorning yolg‘iz qolishi, xalq bilan bo‘g‘liq bo‘lmagan siyosatning inqirozga olib kelishi yoritilib, zamonaviy rahbarlar uchun ham ibratli xulosa sifatida ko‘rsatib beriladi. Fitratning “Abulfayzxon” dramasi 1918-yilda yozilgan bo‘lib, XVIII asrda Buxoro amirligida hukmronlik qilgan Abulfayzxon shaxsiyatiga asoslangan. Asarda Abulfayzxon – islohotchi, lekin kuchsiz hukmdor sifatida aks ettiriladi. Uning atrofidagi ilmga yot, xoin va manfaatparast amaldorlar orqali jamiyatdagi tanazzul ko‘rsatiladi. Drama orqali Fitrat xalq bilan ajralgan, islohotni yolg‘iz o‘zi olib borishga uringan hukmdorning fojiasini ko‘rsatadi.

Asar dramatik qurilma, kuchli sahnaviy dialoglar, ichki monologlar orqali boyitilgan. U tarixiy faktlarga asoslangan bo‘lsa-da, unda muallifning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari ham mujassam. “Abulfayzxon” dramasi o‘quvchilarni tarixiy tafakkurga, siyosiy baholashga va mustaqil fikrlashga undaydigan kuchli vositadir.

Asarni o‘rganishning muhim jihatlari “Abulfayzxon” dramasini o‘rganish o‘quvchilarga nafaqat adabiy asarni anglash, balki chuqur tarixiy tafakkur va ijtimoiy ongni shakllantirish imkonini beradi. Ushbu asar orqali o‘quvchilar tarixiy shaxsiyatlarning qarorlarini tahlil qilish, hukmdor va xalq o‘rtasidagi aloqaning mohiyatini tushunish, jamiyatdagi islohotlar va qarshiliklar o‘rtasidagi ziddiyatlarni anglashadi. Ayniqsa, Fitratning badiiy talqini orqali tarixdagi dramatik voqealarning zamonaviy aksini ko‘rish imkoniyati yuzaga keladi.

Bu drama o‘quvchini fikrlashga, savol berishga va tarixiy baho berishga undaydi. Asar orqali yoshlar rahbarlik mas’uliyati, jamiyatni boshqarishdagi muammolar, johillik va ma’rifat to‘qnashuvi, hamda milliy uyg‘onish g‘oyalari bilan tanishadi. O‘quvchilar uchun bu drama – saboq, mulohaza, ruhiy va ma’naviy tarbiya vositasidir.

O‘qitishning zamonaviy usullari va ularning foydalari Bugungi kunda ta’lim tizimi tez sur’atlar bilan rivojlanib, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan munosabati, o‘zlashtirish darajasi va yondashuvi tubdan o‘zgarib bormoqda. Shu sababli o‘qituvchilar uchun adabiyot kabi mavhumlikni talab qiluvchi fanlarni ham tushunarli va qiziqarli usullarda o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta’limda interfaol metodlar, multimedya vositalari, vizual taqdimotlar, raqamli platformalar orqali o‘quvchini dars jarayoniga faol jalb qilish, fikrlashga majbur qilish asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, “Abulfayzxon” kabi tarixiy-dramatik asarlarni o‘rgatishda raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar dramatik sahnalarni jonli his qiladi, voqealarning mazmunini tasavvur qiladi va tarixiy sharoitga kirib boradi.

Raqamli metodlarning yana bir afzalligi – o‘quvchining o‘z natijalarini tezda ko‘rishi, tahlil qilishi, fikrini tayanadigan ma’lumotlar bilan mustahkamlash imkoniyatining mavjudligidir. Bu esa darsni faqat bilim beruvchi emas, balki muloqotga chorlovchi, izlanishga undovchi, his-tuyg‘uni uyg‘otuvchi jarayonga aylantiradi.

Yangi pedagogik metodlar o‘quvchilarning asarni chuqurroq anglashlariga, tarixiy-madaniy tafakkurini rivojlantirishga, shuningdek, mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. Quyida “Abulfayzxon” dramasini o‘qitishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan samarali metodlar kengaytirilgan holatda yoritiladi:

1. Rol o‘ynash (Role-play) metodi Dramadagi obrazlarni sahnalashtirish orqali o‘quvchilar asar mazmuniga yanada chuqur kirib boradilar. Bu metod orqali ular aktyorlik mahoratini sinab ko‘radilar, obrazga kirishadi, voqeani his qilishadi.

Amaliy misol: O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh asarning muhim sahnasini tanlab, sahnalashtiradi. Misol uchun, Abulfayzxon va Mulla Olim o‘rtasidagi bahsli sahma ijro etiladi. O‘qituvchi bu sahma orqali dramadagi siyosiy va ma’rifiy g‘oyalarning ifodasini izohlaydi.

2. Debat (Bahs-munozara) Asarda ko‘tarilgan ijtimoiy-siyosiy masalalarni bahsli mavzu sifatida muhokama qilish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi. Bu usul tanqidiy fikr yuritish, dalil keltirish va nuqtai nazarni asoslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy misol: Savol - “Abulfayzxon kuchsiz hukmdormi yoki zamon sharoitining qurbanimi?” O‘quvchilar ikki guruhga bo‘linadi va o‘z fikrlarini tarixiy, badiiy dalillar bilan asoslab chiqishadi.

3. Klaster usuli (Grafik tahlil) Asar atrofida asosiy tushunchalarni tarmoqlab, g‘oya va voqealar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish uchun foydalilanadi. Bu metod xotirani mustahkamlashga, tushunchalar o‘rtasida mantiqiy bog‘lanishni anglashga yordam beradi.

Amaliy misol: Markazga “Abulfayzxon” yoziladi. Atrofida quyidagilar yoziladi: “Islohot”, “Johillik”, “Ma’rifat”, “Xoinlik”, “Zamon ruhi”. Har bir tushuncha izohlanadi va sahma misollari bilan bog‘lanadi.

4. “Dramani davom ettiring” ijodiy usuli O‘quvchilarga asarning davomiyligini yozish topshirig‘i beriladi. Ular o‘z tasavvurlariga ko‘ra, Abulfayzxon qanday harakat qilishi, xalqning qanday javob berishi mumkinligini yozadilar.

Amaliy misol: O‘quvchi tasavvur qiladi - “Agar Abulfayzxon xalqni to‘plab ochiq suhbat qilganida...”. Ularning matnlari o‘qiladi, ijodiy ishlari baholanadi.

5. Raqamli texnologiyalar asosidagi metodlar Interaktiv platformalar yordamida (Kahoot, Mentimeter, Padlet) viktorinalar, testlar, so‘rovlар va jamoaviy fikr almashishlar tashkil etiladi. Bu usullar o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, texnologik savodxonligini rivojlantiradi.

Amaliy misol: Dars yakunida Kahoot testlari orqali o‘quvchilar dramadagi qahramonlar, sahnalar, asosiy g‘oyalarga oid savollarga javob beradilar. Natijalar baholanadi.

An’analarni asrash va milliylikni targ‘ib etishda badiiy asarlarning o‘rni Badiiy asarlar, ayniqsa tarixiy-dramatik janrdagi asarlar, xalqning o‘zligini anglash, qadriyatlarini unutmaslik va an’analarni saqlab qolish yo‘lida bebaho manbadir. Fitratning “Abulfayzxon” dramasi bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘lib, xalqning ma’naviy hayotini, tarixiy kechinmalarini, siyosiy sinovlarini aks ettirish orqali o‘quvchini milliy o‘zligiga qaytaradi.

Asarni o‘rganish orqali o‘quvchi o‘z xalqining o‘tmishdagi holatini, madaniy-ma’naviy kurashlarini, ilm va jaholat o‘rtasidagi ziddiyatlarni his etadi. Bu esa bugungi kunda yosh avlodni tarixiy xotirasiz, ildizsiz shakllanishining oldini oladi. Har bir dramatik obraz, voqeа, qaror va oqibat orqali o‘quvchi o‘zligini anglaydi, milliy qadriyatlarga bo‘lgan e’tiborini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, badiiy asarlar – bu faqat o‘qish uchun yozilgan matnlar emas, balki xalq ruhiyati, tarixiy tajribasi, orzusi va iztirobini aks ettiruvchi madaniy qadriyatdir. Shunday asarlarni o‘qitish orqali biz an’analarni saqlab qolamiz, milliy g‘ururni oshiramiz, o‘zlikni unutmaslikka xizmat qilamiz.

Fitratning “Abulfayzxon” asari o‘zbek adabiyotida tarixiy-dramaturgik uslubning yetuk namunasi sifatida baholanadi. Uni o‘qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar qo‘llash orqali nafaqat adabiy bilimlar, balki ijtimoiy va madaniy tafakkur ham rivojlanadi. Ushbu maqolada tavsiya etilgan metodlar drama asarlarini o‘rganishda samarali bo‘lib, ilmiy va amaliy jihatdan yangi bosqichga olib chiqishi mumkin. O‘quvchi asarni nafaqat o‘qiydi, balki uni his qiladi, yashaydi, baholaydi va hozirgi hayot bilan bog‘laydi. Bu esa ta’limning asosiy maqsadidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdurauf Fitrat “Abulfayzxon” 2023-yil
2. “Abulfayzxon” dramasining o‘zbek adabiyotidagi o‘rni 2023- yil
3. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. T.Fan 2004
4. A.Fitrat “Adabiyot qoidalari”.